



Issues of recreating character portraits in the "Baburnama" in German

Dilrabokhon ABDURAKHMONOVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised
form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

Boburnoma,
portrait,
character,
translation,
German,
stylistic specificity,
lexico-semantic
correspondence,
realia,
religious terminology,
equivalence,
H. Dalov,
Umarshaykh Mirza,
Sultan Ahmad Mirza,
Khusrawshah,
Husayn Bayqara,
Boysunqur Mirza.

ABSTRACT

The article analyzes the artistic and stylistic features of character portraits in Zahiriddin Muhammad Babur's *Boburnoma* and the problems of recreating them in German translation. It notes that the work names more than 1,500 individuals and shows how their outward appearance and inner world are conveyed through concise, figurative expressions. Using the portraits of Umarshaykh Mirza, Sultan Ahmad Mirza, Khusrawshah, Boysunqur Mirza, and Husayn Bayqara as case studies, the paper discusses lexico-semantic correspondence, the treatment of realia (dress, religious-ritual terms), and the preservation of stylistic coloring and expressivity in translation. In particular, it evaluates solutions such as interpreting *tanbal* as **wohlgenährt**, rendering *bo'rk* as **Mütze/Kolpak**, and translating *shurb* with a contextual semantic equivalent. Drawing on H. Dalov's translations, it shows how the interplay between portrait (outer appearance) and character (inner world) enriches historical-psychological information and sustains artistic effect. It concludes that preserving the stylistic specificity of portraits in German depends on the translator's sensitivity to context, judicious selection of equivalent units, and maintenance of stylistic adequacy.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp241-249>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD, Acting Associate Professor, Faculty of World Languages, Namangan State University.
E-mail: dilraboabdurakhmonova@gmail.com

“Boburnoma”da qahramonlar portretini nemis tilida qayta yaratish masalalari

Kalit soʻzlar:

Boburnoma,
Portret,
xarakter,
tarjima,
nemis tili,
uslubiy oʻziga xoslik,
leksik-semantik muvofiqlik,
realiya; diniy atamalar,
ekvivalentlik,
H. Dalov,
Umarshayx Mirzo,
Sulton Ahmad Mirzo,
Xusravshoh,
Husayn Boyqaro.

ANNOTATSIYA

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida qahramonlar portreti tasvirining badiiy va uslubiy xususiyatlari hamda ularni nemis tilida qayta yaratish muammolari tahlil qilinadi. Asarda 1500 dan ortiq shaxs nomlari uchrashi, ularning tashqi qiyofasi va ruhiy olami qisqa, loʻnda, obrazli ifodalar orqali berilishi koʻrsatiladi. Tadqiqotda Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Xusravshoh, Boysunqur Mirzo va Husayn Boyqaro portretlari misolida tarjimada leksik-semantik muvofiqlik, realialarni (kiyim-bosh, diniy-ritual atamalar), uslubiy rang va ekspressivlikni saqlash masalalari koʻrib chiqiladi. Xususan, “tanbal” sifatining “wohlgenährt” tarzida talqini, “boʻrk”ning “Mütze/Kolpak” bilan berilishi, “shurb”ning mazmuniy ekvivalent bilan oʻgirilishi kabi yechimlar baholanadi. H. Dalov tarjimalari asosida portret (tashqi qiyofa) va xarakter (ichki olam) uygʻunligi, portret detallarining tarixiy-psixologik maʼlumotni boyitishi va badiiylikni taʼminlashi yoritiladi. Xulosa sifatida, nemis tiliga tarjimada portretning uslubiy oʻziga xosliklarini saqlash tarjimonning kontekstga sezgirligi, ekvivalent birlik tanlovi va stilistik moslikni taʼminlashiga bogʻliqligi asoslanadi.

Проблемы воссоздания портретов персонажей «Бабур-наме» на немецком языке

Ключевые слова:

Бабурнаме,
Портрет,
характер,
перевод,
немецкий язык;
стилевые особенности,
лексико-семантическое
соответствие,
реалия,
религиозная
терминология,
эквивалентность,
Х. Далов,
Умаршайх Мирзо;
Султан Ахмад Мирзо,
Хусравшах,
Хусайн Бойкаро,
Бойсункур Мирзо.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются художественные и стилевые особенности изображения портретов персонажей в произведении Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» и проблемы их воссоздания в немецком переводе. Отмечается, что в произведении упоминается более 1500 имён, а внешность и духовный мир героев передаются краткими, выразительными и образными средствами. На примере портретов Умаршайха Мирзо, Султана Ахмада Мирзо, Хусравшаха, Бойсункура Мирзо и Хусайна Бойкаро рассматриваются вопросы лексико-семантического соответствия, передачи реалий (одежда, религиозно-ритуальные термины), сохранения стилевой окраски и экспрессивности в переводе. В частности, анализируются решения, такие как перевод слова *tanbal* как **wohlgenährt**, передача *boʻrk* как **Mütze/Kolpak**, и использование смыслового эквивалента для слова *shurb*. На основе переводов Х. Далова раскрывается гармония между портретом (внешний облик) и характером (внутренний мир), их роль в обогащении

историко-психологического содержания и художественной выразительности. В заключение делается вывод, что сохранение стилевой самобытности портретов при переводе на немецкий язык зависит от контекстной чувствительности переводчика, точного выбора эквивалентных единиц и обеспечения стилевого соответствия.

KIRISH

Bobur Mirzo o'zining "Boburnoma" asarida har bir obrazning tashqi qiyofasi ya'ni portretini chizishga alohida ahamiyat beradi. Boburnoma asarida 1560 dan ziyod kishilarning nomlari keltirilgan. Ular ichida ko'plab tarixiy shaxslar, ya'ni hukumdor va amaldorlar, ilm-fan va san'at namoyondalari va shoirlarning portretlari tasvirlangan. Z.M. Bobur tarixiy shaxslarning xarakterlarini ochib berishda hamda ularning qiyofalari va fazilatlarini yoritishda, ularning yashash tarzi va sharoitlaridan kelib chiqib, aniq iboralar asosida ifodalashga harakat qilgan. Uning portret yaratish borasidagi mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, portret–fransuzcha so'z bo'lib, "tasvirlamoq" degan ma'noni beradi. "Portret – badiiy asarda personajlarning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi, ya'ni bo'y-basti, rangi, yuz-ko'zi, kiyimi, tana holati va harakatlari, qiliqlari tasviridir" [9].

Ma'lumki, yozuvchi asar syujetiga, voqealar rivojiga bog'liq holda tashqi kartinalar, tabiat ko'rinishlari, uy jihozlari, predmet va buyumlar tasvirini yaratadi. Ijodkor biror voqeani hikoya qilishga kirishar ekan, ko'pincha avval ro'yberayotgan hodisaning o'rnini batafsil chizishga harakat qiladi. Shu asosda kitobxon ko'z o'ngida konkret mamlakat, shahar-qishloqlar manzarasi, ob-havosi, o'simliklar dunyosi, tabiati, turmushi, kun kechirishi, madaniyati, kiyinish tarzi namoyon bo'ladi. Taniqli tarjimashunos olim G'.Salomov tarjimonni vazifasi haqida so'z yuritir ekan quyidagilarni e'tirof etadi: boshqa tilda yaratilgan badiiy asar tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarjima qilinayotgan asarning na ruhiga na mazmuniga va na ohangiga zarar yetkazmasdan o'girish, asl nusxadagi ibora va ifoda vositalarga, obrazlarga ruh, ma'no, vazn, ohang jihatidan hamda kitobxon qalbida hosil qiladigan tuyg'ular, tug'iladigan tasavvurlar jihatidan tugal, mos va monand bo'lgan so'z va iboralarni o'z tilidan topishdan iborat [8].

Dunyodagi har bir tilda muayyan diniy aqidalar bilan bog'liq bo'lgan so'z va iboralar uchraydi, shuningdek, toponimik xususiyatga ega bo'lgan so'z va iboralar ham mavjud. Bulardan foydalanish tarjima qilinayotgan asarda tasvirlangan xalqning milliy tabiatini to'liq ochib bera olmasligi mumkin. Obraz va personajlarning xarakterini ochib berishda ularning o'ziga xos tilda gapirishi katta ahamiyat kasb etadi.

Qahramon portreti tasviri uning suratini ko'rsatish uchun emas, balki ruhiy dunyosini anglash uchun ham ahamiyatlidir. Asarda xon, amir, beklarning ko'plab betakror portretlariga duch kelamiz. Ularning nasl-nasabi, shakl va shamoyili, axloqi, jangu-jadallari, umarosi haqida aniq va qisqa ta'rif-tasvirlar beriladi. H.Dalov o'z kitobida A.P.Chexovning quyidagi fikrini keltirib o'tadi: "Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak-yuzi, kiyimi, qalbi, fikrlari" [2]. Asarda portret va peyzajning o'zni nihoyatda katta. Bu asarning badiiyligini ta'minlaydigan jihatidir. "Boburnoma"da oltita tarixiy shaxslarning mukammal portreti to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlar berilgan.

Bular: Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Hisravshoh, Boysunqur Mirzo va Husayn Boyqarolardir.

Shu o'rinda Boburning otasi Umarshayx Mirzoning ta'rifi-tasviriga e'tiborimizni qarataylik.

Asliyatda: past bo'yluq, tegirma sakqollik, quba yuzluk, tanbal kishi edi. To'nni bisyor tor kiyar edi, andog'kim, bog' bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur edi, bog' bog'lag'ondin so'ng o'zini quya bersa, bisyor bo'lur erdikim, bog'lari uzulur edi. Uning axloq va atvoriga esa quyidagicha ta'rif beradi: Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag'i saxovatcha bor edi, xushxulq va harrof va fasih, va shirinzabon kishi erdi, shujo' va mardona kishi edi. [10]

Ushbu tasvirda Umarshayx mirzo kiyofasining barcha asosiy belgilari – kiyimni kanday kiyishidan tortib, ayrim shaxsiy fazilatlarigacha qamrab olingan. Bu o'rindagi chizgilar kichik bir viloyat hukmdorining har kanday dabdaba va xashamatlardan xoli bo'lgan oddiy hayotini, sodda va samimiy qiliqlarini aks ettiradi.

Nemis tilida: Omar Scheykh Mirza war nicht groß, aber wohlgenährt. Er hatte ein weißes Gesicht und einen buschigen Bart. Er trug einen sehr schmal geschnittenen Mantel, den er immer eng schnürte, dabei musste er immer den Bauch einziehen. Wenn er wieder ausatmete, passierte es oft, dass die Schnüre rissen.

Sein Benehmen und seine Eigenschaften: Er war sehr großzügig, und sein Benehmen dementsprechend. Er war ein gutherziger, feinfühlicher, redseliger Mensch und zeigte sich als tapferer und kühner Mann [2].

Ma'nosi: Umarshayx mirzo bo'yi past, biroq semiz (tanbal) odam edi. Uning yuzlari oq va soqollari esa qalin edi. U to'nni juda tor kiyishni yaxshi ko'rardi. Belbog'ni bog'layotganda qornini ichiga torttirib bog'latar, ammo bog'lagandan so'ng o'zini bo'sh qo'yganda, ko'pincha belbog'i uzilib ketardi.

Uning axloq va atvorini quyidagicha tasvirlaydi: U olijanob ya'ni qo'li ochiq edi. Hulqi ham saxovatcha bor edi. Xushfe'l, sevgir, gapga chechan va jasur va mard ko'rinar edi.

H. Dalov Umarshayx mirzo portreti tasvirini tarjimada to'laqonli, ya'ni har bir so'zni o'z o'rnida ishlatishga harakat qilgan. Hattoki tanbal so'zini ham "wohlgenährt", so'zi bilan "semiz" ma'nosini anglatuvchi so'z orqali o'quvchiga tushunarli tarzda o'giran. Chunki tanbal so'zi dangasa, ish yoqmas degan ma'noni ham beradi. O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha berilgan: "Tanbal" (forscha. erinchoq, yalqov) – o'taketgan dangasa, yalqov [3] deb tavsiflangan. "Navoiy asarlari lug'ati"da esa "TANBAL – f. 1. Yalqov, dangasa; 2. Maj. Semiz, lo'ppi", deb berilgan [11].

Bizningcha, tanbal so'zining lug'atda keltirilgan dangasa, yalqov ma'nolari Umarshayx uchun berilgan ta'rif emas. Tarjima matnini o'qigan har bir kishi tasavvurida Boburning otasi Umarshayx mirzo harbiy qobiliyatga ega va janglarda ishtirok etgan kuchli, to'ladan kelgan baquvvat va mard kishi sifatida gavdalanadi. Ko'rinib turibdiki, Umarshayx mirzoga berilgan "tanbal" sifati o'z o'zidan uning kuchli va baquvvat ekanligidan bir misol bo'la oladi. Bundan amin bo'lamizki Bobur ota-ona, qarindosh urug', vaziru amirlarining yaxshi yomon sifatlarini yashirmay ro'y-rost yoritib beradi.

Bizningcha u xolis inson. Deyarli har bir obrazga yo'l-yo'lakay bo'lsada ta'rif berib ketadi. Shuningdek asarda shaxslar xarakter xususiyatlaridagi ijobiy sifatlar bilan bir qatorda salbiy sifatlarni ham bayon qiladi. Yuqorida Umarshayx mirzoning ijobiy sifatlarini qayd etildi. Uning salbiy sifatlari ham e'tibordan molik emas. Masalan: "Mulkgirlik dag'dag'asi jihatidin xeyli yarashlar urushqa va do'stluqlar dushmanliqqa mubaddal bo'lur edi". Ma'juniylikda kalla xushk bo'lur edi, yetim shior erdi, la'bi dag'i bisyor erdi, hamisha nard o'ynar erdi, goho qimor ham qilur edi [10].

Ushbu salbiy sifatlar nemis tiliga quyidagicha o'girilgan: *Wegen seiner Eroberungssucht hatte er oft Frieden mit Krieg und Freundschaft mit Feindschaft verwechselt. Omar Scheykh Mirza war ein von Leidenschaft ergriffener Mensch und litt häufig unter Qualen der Liebe. Er spielte oft das Brettspiel und manchmal auch die Würfel* [2].

Ma'nosi: *Bosqinchilikka moyilligi tufayli u ko'pincha tinchlikni urush bilan, do'stlikni dushmanlikka aylantirardi. Umarshayh mirzo ehtirosli inson bo'lib, ko'pincha sevgidan azob chekardi. U tez tez narda o'ynar va ba'zida qimor ham o'ynardi.*

Tarjima so'zma so'z o'girilgan. Ko'rinib turibdiki, Bobur Umarshayx mirzo portreti va xarakterini qisqa, lo'nda, badiiy bo'yoqdorlik va sof turkiy so'zlardan unumli foydalangan holda amalga oshirgan. Tarixiy, lingvistik vositalarni o'rinli ishlatgan.

Xarakter badiiy asar butunligini ta'minlaydigan muhim poetik birlik hisoblanadi. "Badiiy portret asosan qahramon tashqi qiyofasi haqida tasavvur uyg'otishga xizmat qilsa, xarakter uning ichki dunyosi, asar syujeti va undagi boshqa qahramonlar bilan munosabatini ta'minlovchi vosita vazifasini bajaradi. Faqat badiiy portret bilan xarakter uyg'unlashgandagina qahramon mohiyati to'laqonli ochiladi. Asarning ta'sir kuchi, estetik qiymati, amaliy va tarbiyaviy ahamiyati oshadi" [6]. Buni Boburning otasi Umarshayx mirzo va uning o'n uch amirining har biriga bergan alohida ta'rifida ko'rish mumkin. Masalan, amirlardan biri Hasan Ya'kubbekning xarakteri, uning ichki dunyosi quyidagicha ta'riflanadi.

Asliyatda: *Yana bir Hasan Ya'kubbek edi. Kichik ko'ngulluk, yaxshi tab'lik, chust va chaspon kishi edi. Mardona kishi edi. O'qni yaxshi otar edi, chavgonni yaxshi o'ynar edi. Xok pallani yaxshi socharar erdi. Umarshayx mirzo voqi'asidin so'ng mening eshigimda sohib ixtiyor ul edi. Ichi tor va kam havsala va fitnaroq kishi edi* [10].

Nemis tilida: *Der andere Emir war Hasan Jakub Beg, der Eigenschaften eines engstirnigen, aber lebhaften, fleißigen und gutmütigen Menschen besaß. Er war mutig und erwies sich als sicherer Bogenschütze, darüberhinaus zeichnete er sich besonders gut im Polo- und Bockspringspiel aus. Nach dem Hinscheiden von Omar Scheykh Mirza hatte er als souveräner Würdenträger die Aufsicht über meine Pforte inne. Als ein Mann besaß Hasan Jakub Beg Eigenschaften eines unausgebildeten, hemmungslosen Menschen, der Zuneigung zum Zwiststiften hatte* [2].

Ma'nosi: *Yana bir amiri Hasan Yakubbek bo'lib, u tor fikrli, lekin serg'ayrat, mehnatsevar va xushmuomalalik xususiyatiga ega edi. U jasur, zo'r kamonchi edi, chavgon va sakrash o'yinini yaxshi bilar edi. Umar Shayx Mirzo o'limidan so'ng, u mening uy ho'jayinim bo'ldi. Hasan Yoqubbeg ehtirosli, qobiliyatsiz va kelishmovchilik chiqarar edi deb o'giriladi.*

Bobur beklardan biri Hasan Ya'kubbek antroponimi haqida fikr yuritib, uni kichik ko'ngillik, yaxshi ta'blik, (chust [5] – tez, ildam, jadal, chaqqon; o'tkir, keskir; va chaspon [7] – chaqqon, epchil, kirishimli) chaqqon va kirishimli kishi bo'lganligini, jasur shaxs bo'lib, o'qni yaxshi otishi va chavgonni mahorat bilan o'ynashini tasvirlab beradi. Tarjimada ham Hasan Yakubbekning xarakteri va ichki dunyosiga oid ta'riflar o'z o'rnida qo'llanilgan.

Yana Umarshayx Mirzoning amirlaridan biri Alido'st tag'oyi haqida: *"Yaramas axloq va atvorliq kishi edi. Baxil va fitna va zumuxt va munofiq va xudpisand va qattiq so'zluk va sovuq yuzluk kishi edi"* [10] degan so'zlarida bu shaxsga nisbatan salbiy his tuyg'ularini ko'rishimiz mumkin.

Tarjimada: *“Ein weiterer Emir namens Ali Dust Taghay war ein gemeiner Mensch, der als Geizhals, Schwachkopf, scheinheilig, voller Selbstgefälligkeit, rau, hartherzig und Unruhestifter bekannt war [2].* Ma’nosi: *Ali Dust Tag’ay ismli yana bir amiri oddiy odam bo’lib, u baxil, bema’ni, ikkiyuzlamachi, qattiqqo’l, qo’pol, beraxm va tartibsiz kishi edi.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o’zi yuksak e’tiqodli inson bo’lganligi tufayli kishilar xulqiga baho berishda eng avvalo, ularga turmush tarzi va odatlari, shakl-shamoyili, kiyinishi, didi, e’tiqodi, taqvodorligi, islom ahkomlarini qay darajada ado etishiga qarab yo ijobiy yo salbiy baho beradi va bu boradagi o’zining keskin qarashlarini namoyon etadi. Alido’st tag’oyiga berilgan salbiy sifatlar ham uning qo’pol, xasis, ikkiyuzlamachi shaxs ekanligidan dalolatdir. H.Dalov qiyosiy tasvirlarni asliyat matniga muvofiq o’girishga erishgan. Alido’st tag’oyining xarakter psixologiyasi yaxshi ifodalangan. Biz yuqorida Umarshayx mirzo va unig ikkitagina amiriga to’xtaldik xolos, balki uning yana o’n bir amirlariga berilgan ta’riflardan ma’lum bo’ladiki, kishilarning xarakter xususiyatlari hamda axloqiy sifatleri asar matnida tarixiy ma’lumotlarni to’ldiribgina qolmay, balki asarning qimmati va jozibasini oshiradi.

Tarixiy shaxslardan yana biri Sulton Ahmad mirzoning portretiga e’tibor qarataylik: Asliyatda: *Sulton Ahmad mirzo baland bo’yluq, qunqor soqolliq, qizil yuzluk, tanbal kishi edi. Soqoli engakida edi. Ikki yangoqida soqoli yo’q edi. Bisyor xushmuxrvara kishi edi [10].* Tarjimada: *Sultan Ahmed Mirza war ein Mann von hoher, robuster Statur, mit einem dunkelblonden Bart. Er trug nur einen Kinnbart und hatte ein rötliches Gesicht. Er war ein sehr angenehmer Gesprächspartner und trug den Turban entsprechend der damaligen Sitte vierfach gefaltet mit den Knoten über den Augenbrauen.* Ma’nosi: *Sulton Ahmad Mirzo baland bo’yli, qomatli, to’q sariq soqolli kishi edi. Soqoli engagiga tushgan, yuzi qizil edi. U juda yoqimli suhbatdosh bo’lib, o’sha davrning odatiga ko’ra, sallasini to’rt marta buklangan holda, qoshlarining ustiga tashlab qo’yardi.*

Tarjima asliyatga mos amalga oshirilgan, H. Dalov “tanbal” sifatini Umarshayh mirzoga nisbatan “wohlgenährt” – “semiz” shaklida, Sulton Ahmad mirzoga nisbatan esa “robuster Statur” ya’ni qomatli, baquvvat kishi tarzda tarjima qilgan. Tarjima matni nemiszabon o’quvchilarining tushunishi uchun sodda shaklda berilgan.

Z.M. Bobur Sulton Ahmad mirzoning xulqi va atvorini ham mohirona tasvirlangan. Avvalo, uning e’tiqodi va taqvodorligiga ham yuksak baho beradi. Asliyatda: *U hanafiy mazxabliq, pokiza e’tiqod kishi edi, besh vaqt namozni betark o’tar edi. Shurb mahallarida ham namozi tark bo’lmas edi. Tabiatig’a imsok g’olib erdi, kamsuxan va odmi kishi erdi, ixtiyori beklari ilgida edi [10].*

Tarjimada: *Sultan Ahmed Mirza bekannte sich zum hanefitischen Ritus und war ein rein gläubiger Mensch. Stets hatte er fünf Gebete täglich verrichtet, und sogar ein Trinkgelage hielt ihn nicht davon ab. Von Natur aus war er überwiegend geizig, wenig redselig und weich. In seinem Willen war er von den Begs abhängig [2].*

Ma’nosi: *Sulton Ahmad Mirzo hanafiy mazhabida va sof e’tiqodli kishi edi. Doim besh vaqt namoz o’qirdi, hatto ichkilik paytlarida ham namozni to’xtatmasdi. Tabiatan u asosan ziqna, kamgap va odmi(yumshoq) kishi edi. Uning ixtiyori beglarga bog’liq edi.*

Misollardan ko’rinib turibdiki, mazmun asliyatga to’laonli mos, hattoki “Trinkgelage” so’zi “shurb” so’ziga xos o’girilgan. Navoiy asarlari tilining izohli lug’atida “shurb” so’zining izohi mavjud, ya’ni shurb – 1. ichish; 2. nasiba, ulush kabi [1].

Sulton Ahmad mirzo tabiatan ziqna bo'lishiga qaramay u kamgap, hamma narsaga ko'nikuvchan, har qanday holatda ham namozni kanda qilmaydigan e'tiqodli kishi ekanligi, yaqqol tasvirlab bergan. Sulton Ahmad mirzoning o'n bitta amiri bo'lib, ularning barchasi ijobiy xulq-atvorli kishilar edi, chunki ularga berilgan ta'rifdan buni anglash juda oson. Bobur Sulton Mahmud mirzo va uning oltita amirlari, beklari, navkaru xizmatchilarining axloq va atvoriga bergan tasniflaridan shuni anglash mumkinki, o'zi qanday zolim va axloqsiz bo'lsa uning qo'li ostidagi amiru hizmatchilari ham shunday zulmkor va bo'zg'unchi bo'ladilar.

Amirlaridan biri Xusravshoh portretining tasviriga yaqinroq yondoshaylik: *Agarchi Namozni qilur edi va taomda parhyez qilur edi, vale tiyra va fosiq edi, gavdan va befaxdo va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh kun o'tar dunyo uchun bir o'zi o'sturg'on valine'matzodasini ko'r qildi. Yana birini o'lturdi* [10].

Nemis tilida: *Obwohl er beim Essen Abstinenz bevorzugte und die vorgeschriebenen Gebete befolgte, war er von Natur aus kein reiner Mensch. Er trieb Unzucht, war unwissend und ohne Verstand, dazu noch heimtückisch und undankbar. Um des Segens des vorübergehenden, vergänglichen irdischen Lebens willen ließ er einem der Söhne seines Wohltäters, dessen Gunst er einst genoss, die Augen ausstechen und einen anderen ermorden* [2].

Ma'nosi: *U ovqatdan parhez qilishni afzal ko'rgan va namozga amal qilgan bo'lsada, tabiatan pokiza odam emas edi. U zino qildi, johil va aqlsiz edi, shuningdek, xiyonatkor va noshukur edi. Vaqtinchalik berilgan, yer yuzidagi hayot uchun, o'zi o'stirgan valine'matzodasining o'g'illaridan birining ko'zini ko'r qilgan va boshqasini o'ldirgan.*

Tarjimadan ko'rish mumkinki "Besh kunlik o'tar dunyo uchun" iborasini, "Vaqtinchalik berilgan hayot uchun" deb tarjima qilingan. Ma'no va mazmun jihatdan asliyatga yaqin holda aniq va lo'nda tarjima qilingan. Asl nusxadagi parchada berilgan Xusravshohning ko'rinishidagi detallar tarjimon tarafidan to'g'ri o'girilgan. O'zbek tarjima nazariyotchisi G'.Salomov obrazli ifodalarning tashqi formasiga emas, balki mantiqiy ahamiyatiga asosiy e'tibor berishni taklif qiladi [8].

Haqiqatdan ham tarjimon shunga erishishi kerakki, uning kitobxoni asl nusxada olgan emotsional taassurotlarini tarjimada ham his qilishi joiz.

Tarixiy shaxslar siymosini, ularning shakl va shamoyilini mukammal yoritish, ayrim xatti harakatlarini voqealar jarayonida aks ettirish usuli Xusayn Boyqaro shaxsining talqinida ham yaqqol ko'rinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur tarixiy shaxslar orasida Husayn Boqaroga katta ehtirom bilan qaragan. U "Boburnoma"da Husayn Boqaroning shakl-shamoyili, axloq va atvori haqida to'liq ma'lumot beradi: *"Qiyiq ko'zluk, sherandom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lub edi, xushrang, qizil-yashil abrishimni kiyar edi. Qora ko'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonon iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi namoyon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib, namozg'a borur edi"* [10].

Tarjimada: *Sultan Huseyn Mirza war ein Mann mit Schlitzaugen, stämmig, aber schmal gebaut. Auch als er schon ein reifes Alter erreicht hatte und sein Bart ergraut war, kleidete er sich noch in Gewänder aus hellroter oder grüner Seide und trug eine schwarze Lammfellmütze oder einen Kolpak (Pelzmütze). Manchmal begab er sich an einem Festtag zum Gebet und trug einen kleinen, flachen, nachlässig gewickelten und dreifach gefalteten Turban, der mit einer Reiherfeder geschmückt war* [2].

Ma'nosi: *Sulton Husayn Mirzo qisiq ko'zli, gavdali, ammo ozg'in qomatli kishi edi. Keksalik yoshiga yetib, soqoli oqarib ketgan bo'lsa ham, u yorqin qizil yoki yashil ipakdan to'n kiyib, qora qo'zichoq terisidan qilingan bosh kiyim shapka yoki kolpak kiyib yurardi. Ba'zan ramazon bayram kunlarida kichkina, yap-yassi uch o'rama sallani chirmab va qarqara pati bilan bezatilgan holda namozga borardi.*

Tarjimaga e'tibor qaratsak "Qora ko'zi bo'rk" yo qalpoq kiyardi. Shu joyda bo'rk so'zi nemis tiliga "Mütze" shaklida o'girilyapti va holanki u olmon o'quvchisi uchun shapka yoki shlyapa degan ma'noni anglatadi. Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida ham "bo'rk" so'ziga izoq berilgan. Bo'rk-bosh kiyim; qalpoq yoki telpak, bo'rk [4] shaklida.

H. Dalov tarjimaga jiddiy yondoshgan asliyat mazmuniga xos tarzda amalga oshirilgan, lekin olmon o'quvchisi uchun tushunarli bo'lishini inobatga olgan holda sodda shaklda "Qora ko'zi terisidan tiqilgan bo'rk" deb yoniga izoh berganda maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Chunki bo'rk milliy bosh kiyim hisoblangan.

Boburmirzo davom etib Husayn Boyqaroning axloq va atvori hususida ham aniq va to'liq ma'lumot beradi: *"... Harrof va xushxulq kishi edi. Xulqi bir nima guzaroroq voqe bo'lib edi, so'zi ham xulqidek edi. Ba'zi muomalotta shar'ni bisyor rioyat qilur edi"* Tarixdan ma'lumki, Husayn Boyqaro adolat va shariatga qattiq amal qilgan. Bir o'g'li bir kishini o'ldirgani uchun uni o'zi qozixonaga yuborgani haqida so'zlaydi. Bu dalil uning vatanparvarlik, xalqparvarlik burchini otalik burchidan ko'ra ustun qo'ya olganini ko'rsatadi. Bu fazilat uning asl va adolatli podshohligini tasdiqlaydi. Husayn Boyqaro Xurosonda 40 yilga yaqin podshohlik qildi. Bobur uning podshoh va jangchi sifatidagi matonati va mardonaligini ko'rsatuvchi dalillar keltiradi. Temurbek naslidan hech kim qilichbozlikda Husayn Boyqarochalik mahorat qozonmaganini ma'lum qiladi. Bobur Husayn Boyqaroni ta'riflar ekan, unga xolis baho berishga harakat qiladi. Uning davlat boshqaruvidagi, sipohigarchilikdagi mahoratiga tan bergani, havas bilan qaragani holda, umrini farog'atninishlikda o'tkazganini ma'qullamaydi. Temur kabi mamlakatini markazlashtirishga intilmaganlik, ishratparastlikka berilganlikda ayblaydi. Husayn Mirzoga baho berar ekan, uning fe'l-atvoridagi nuqsonlarni ham yashirmay bayon etadi: *... hech kun yo'q edikim, namozi peshindin so'ng ichmagay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o'g'lonlari va jami' sipohig'a va shahrig'a bu hol edi. Ifrot bila aysh va fisq qilurlar edi* [10].

Tarjimada: *... verging kein Tag, an dem er nicht nach dem Mittagsgebet getrunken hätte. Dagegen trank er niemals am Morgen. Seine Söhne und alle seine Krieger sowie die Bewohner benahmen sich ebenso und gaben sich maßlos Belustigungen und Ausschweifungen hin* [2].

Ma'nosi: *... peshin namozidan keyin ichmagan kun bo'lmagan. Boshqa tomondan, u ertalab hech qachon ichmagan. Uning o'g'illari va uning barcha jangchilari, shuningdek, aholi ham xuddi shunday yo'l tutib, haddan tashqari aysh-ishrat va buzuqlikka berilib ketishdi.* Tarjima aniq va lo'nda amalga oshirilgan.

Bobur Husayn Boyqaroning o'ttiz oltita amirlari, o'n ikkita vazirilari, yigirma to'rtta shoirlarining portret va ruhiyatlarini ham mohirlik bilan tasvirlab bergan, ularning xatti-harakatlari, faoliyati bayoni orqali shaxsiy xarakterlarini ochib bergan.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari va fazilatlarini yoritganda, portret va ruhiyatlarini Bobur ularga nisbatan haqqoniy munosabatda bo'lishga, ularning yashash tarzi va sharoitidan kelib chiqib, fe'l-atvorlarining eng muhim jihatlarini mumkin qadar aniq va ixcham iboralarda, lo'nda ifodalashga harakat qilgan. „Boburnoma“dagi tarixiy shaxslar

haqidagi ma'lumotlar Boburning otasi Umarshayx Mirzo va uning atrofidagi o'n uch (13)amiri, Sulton Ahmad va uning o'n bir (11)amiri, Sulton Mahmud va uning olti(6) amiri, Husravshoh, Bosunqor mirzo hamda Husayn Boyqaro va uning o'ttiz to'rta (36) amirlariga berilgan tavsiflar doirasida olib borilgan psixologik tahlillar orqali shu narsa ma'lum bo'ladiki, kishilarning xarakter xususiyatlari hamda axloqiy psixologik sifatleri asar matnida tarixiy ma'lumotlarni to'ldiribgina qolmay asarning qimmati va jozibasini oshiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zi yuksak e'tiqodli inson bo'lganligi tufayli kishilar xulqiga baho berishda eng avvalo ularga e'tiqodi, taqvodorligi, islom ahkomlarini qay darajada ado etishiga qarab yo ijobiy yo salbiy baho berganligini yuqoridagi tahlillarda kuzatdik.

Asardagi portretlar tarjimasida mutarjim, ayrim tafsilotlardagi noaniqliklarga qaramay, portret xususiyatlarining barcha nozik tomonlarini etkazishga muvaffaq bo'lgan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, portret tavsifini qayta yaratishda tarjimon mahorati personajlar tashqi ko'rinishini asl nusxadagidek bera olish, maqbul so'z va iboralar, badiiy tasvir vositalarini qo'llash hamda ularning muqobil variantlarini topib jonli aks ettirishda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 1984. – Б. 550.
2. Dalov H. Zahiriddin Muhammad Bobur. Babur-name. Kurzfassung. BoD – Germany, 2022. – S. 613.
3. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т-ҳарфи. – Тошкент, 2006. – Б. 38.
4. Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б. 346.
5. Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 240.
6. Ҳошимова Д. М. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан. док.... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 16.
7. Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. – Андижон, 2008. – Б. 196.
8. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т: Фан, 1966. – Б. 66.
9. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2018. – Б. 63.
10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 37.
11. Шамсиев П, Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 592.